O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI TARIXIDAN

M.Ibragimova, FarDU talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek leksikografiyasi rivojlanishining tarixiy davrlashtirish tamoyillari, lug‘atchilik an’analari va ularning hozirgi zamonaviy leksikografiyaga ta’siri o‘rganiladi. Leksikografiyaning shakllanish bosqichlari, ularning ilmiy va amaliy asoslari tahlil qilinadi.*

Аннотация: *В статье изучаются принципы исторической периодизации развития узбекской лексикографии, лексикографические традиции и их влияние на современную лексикографию. Анализируются этапы становления лексикографии, их научные и практические основы.*

Abstract: *This article studies the principles of historical periodization of the development of Uzbek lexicography, lexicographic traditions and their impact on modern lexicography. The stages of the formation of lexicography, their scientific and practical foundations are analyzed*

Kalit so‘z va iboralar: *leksikografiya, lug‘atchilik tarixi, davrlashtirish, an’ana, o‘zbek tili, ilmiy lug‘atlar, tarixiy bosqichlar.*

Ключевые слова: *лексикография, история лексикографии, периодизация, традиция, узбекский язык, научные словари, исторические этапы.*

Keywords: *lexicography, history of lexicography, periodization, tradition, Uzbek language, scientific dictionaries, historical stages.*

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida leksikografiya muhim o‘rin egallaydi. Leksikografiya — til birliklarini tizimli tarzda yorituvchi fan sifatida nafaqat zamonaviy til holatini aks ettiradi, balki tilning tarixiy taraqqiyotini ham belgilaydi. Bu boradagi yondashuvlardan biri — leksikografiyani tarixiy jihatdan davrlashtirishdir. Har bir davr lug‘atchilik an’analarini, tamoyillarini va metodikasini belgilaydi. Ushbu maqolada o‘zbek leksikografiyasi tarixini davrlarga ajratish zarurati, tamoyillari va asosiy lug‘atchilik an’analari haqida so‘z yuritiladi.

O‘zbek leksikografiyasi ildizlari qadimgi turkiy davrga borib taqaladi. "Devoni lug‘atit turk" (Mahmud Koshg‘ariy, XI asr) ilk leksikografik manba bo‘lib, unda turkiy tillarning boy lug‘aviy tarkibi keltirilgan. Keyinchalik “Muhokamat al-lug‘atayn” (Alisher Navoiy) asari o‘zbek tilining mustaqil leksik taraqqiyotini aks ettirgan muhim manbalardandir.

O‘zbek leksikografiyasida tamoyil va an’ana ikki muhim tushuncha bo‘lib, ular lug‘at tuzish jarayonining ilmiy asoslari va tarixiy davomiyligini belgilaydi. Quyida ularning qisqacha izohlash mumkin:

1. Tamoyil (printsip).Tamoyillar — bu lug‘at tuzishda asos qilib olinadigan ilmiy, nazariy va amaliy qoidalar majmuasidir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

2. Ilmiylik — so‘z va ma’lumotlar ishonchli, adabiyotlarda mavjud bo‘lgan shakllarga asoslangan bo‘lishi kerak.

2. Sistemalilik — lug‘atda keltirilgan so‘zlar bir-biri bilan grammatik, semantik yoki boshqa bog‘lanishlarga ega bo‘ladi.

3. Aniqlik va tushunarlilik — har bir so‘z izohi sodda, aniq, ortiqcha murakkabliksiz bo‘lishi kerak.

4. Normativlik — adabiy til me’yorlariga amal qilinadi.

Ushbu yuqorida berilgan namunalar lug‘atlarga xos ta’moyillarni belgilab beradi.

An’ana — bu o‘zbek leksikografiyasida avvalgi avlod leksikograflar tomonidan yaratilgan lug‘atlar, ularning uslubi, shakli va ishlash uslublariga tayanish demakdir. Misollar uchun O‘zbek tilining izohli lug‘atlari (1969, 1981 yillar) Ma'rifatparvarlar va jadidlarning lug‘atlari (Abdulla Avloniy, Fitrat) Sovet davri lug‘at maktabi — strukturaviy yondashuvga asoslangan.

An’analar zamonaviy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirilganda, yuqori sifatli, foydalanuvchiga qulay lug‘atlar yaratiladi.

O‘zbek leksikografiyasidagi har bir lug‘atning o‘zi xos va umumiy tomonlari mavjud bo‘ladi. Masalan, ba’zi lug‘atlar alifbo tartibida, ba’zi lug‘atlar esa so‘z turkumlariga ko‘ra yozilgan bo‘ladi. Albatta,bu lug‘at tuzuvchi xohishiga ko‘ra bajariladi. Ushbu jadavl orqali biz bu farq va uumiylikni yana-da tushuna olamiz.

Til tarixida yaratilgan lug‘atlar uhun umumiy xususiyat bu ularning an’anaviy bismillahur rohmanir rohim bilan boshlanishi va yuvman so‘zi bilan tugashi desam, adashmaymiz.Masalan,Mahmud Qoshg‘ariyning ”Devoni lug‘otit turk”, ”Abushqa,” Sangloh””Kelurnoma”kabi lug‘atlar bunga yaqqola misol bo‘ladi.

Ba’zi lug‘at tuzuvchilar lug‘atlarini alifo bo‘yicha yaratishgan bo‘ladi. Masalan,”Badoyi-al lug‘at”, ”Sab’at abhur”,”Devoni lug‘otit turk” kabi lug‘atlar misol bo‘a oladi.

“So‘z ma’nolarining leksikografik tasnifi” va “Kitob al- idrak li-lisan al-atrak” kabi lug‘atlar esa tilshunoslikka oid bo‘limlar,ya’ni fonetika yoki morfologiya bilan boshlanishi bu,albatta lug‘atlaning o‘ziga xos xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Lug‘atlar nomi	Muallifi	Vaqt	Tuzulishi	Maqsadi	Hajmi	Tili
“Devoni lugotit turk”.	Mahmud Qoshg‘ariy	XI asr	So‘z turkumlari bo‘yicha	Qabila so‘zlarini izohlash	8 bo‘lim; 7500ta so‘z;	Turk
“Muqaddimatul adab”	Mahmud Zamaxshariy	1137	Ot; fe’l; bog‘lovchi; ot o‘zgarishlar; fe’l o‘zgarishlar	Xorazmsho h Otsizga atab yoziladi	5 qism	Arab
“Attuhfatuz zakiyatu fillug‘otut turkiya”	Mahmud ibn Vali	XIV asr	_____	Qipchoq shevalarini o‘rganish	1 risola; sahifa	Arab
“Abushqa”	_____	1560-yil	_____	Alisher Navoiy va uning zamonlari asarlari tili uchun yaratilgan	402 betdan iborat.	Arab tili nastalig‘ yozuvi
“Tarjimon”	_____	XIV asr	Lug‘at ismlar,fe’l va uning turlanishi haqida	Arab grammatika siga asoslangan asar sanaladi.	26 fasl	Turk
“Badoyi-al-lug‘at	Husayn Boyqaro tuzdirtirgan	1500-yil	Alifbo bo‘yicha	Navoiy asarlari uchun tuzilgan	____	Arab
“Kelurnoma”	Muhammad Yoqub Chingiy	XVII asr oxiri		Hindistonda yashaydigan turkiy zamonlar talaffuzi uchun.	15-bob; 6000 so‘z	

Til tarixida yaratilgan har qanday lug‘atda biz umumkiylik va xususiylik kabi hodisalarga guvoh bo‘lamiz.Bu holat bizga o‘sha davrlarda lug‘atlardagi hamma uchun barobar bo‘lgan qonuniyatlar haqida xabar beribgina qolmay,har bir lug‘at

tuzuvchining o‘ziga xos yo‘nalish va prinsip sohibi ekanidan xabar beradi desak adashmagan bo‘lamiz.

Barcha ko‘rsatilganlarni xulosalaylik, mazkur maqola tahlil natijalariga asosan, O‘zbek leksikografiyasi boy tarixiy an’analarga ega bo‘lib, har bir davr o‘ziga xos yondashuvlari bilan ajralib turadi. Davrlashtirish tamoyili orqali bu jarayonni tizimli tahlil qilish mumkin. Leksikografik an’analar, xususan, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, jadidlar, sovet olimlari va zamonaviy leksikograflar faoliyati orqali boyitilib kelmoqda. Hozirgi zamon o‘zbek leksikografiyasi an’anani yangilash, ilmiy asoslash va zamonaviy texnologiyalarga integratsiyalashish bosqichida.

Adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg‘ariy. *Devoni lug‘atit turk*Toshkent: Fan, 1993.
2. Alisher Navoiy. *Muhokamat al-lug‘atayn*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1982.
3. Xasanov, B. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. Toshkent: O‘zFA, 1981.
4. G‘afurov, N. *Leksikografiya asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
5. Karimov, S. *O‘zbek leksikografiyasi taraqqiyoti*. Toshkent: Fan, 2015.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori: “Davlat tilini rivojlantirish strategiyasi”, 2019.